



BADIIY DETAL MAZMUNI OCHUVCHI TOPILMA SIFATIDA

Komilova Dilnoza Muhammad qizi

Farg'ona davlat universiti o'zbek tili va adabiyoti

kafedrasi o'qituvchisi(PhD)

d.komilova0893@gmail.com

+998998305880

Turg'unboyev Asilbek

FarDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20624164>

Annotatsiya

Ushbu maqolada matnning tarkibiy elementi hisoblangan detal xususida mulohazalar, unga filologik yondashuv, matnning kichik elementi sifatida qarash, e'tirof etish, so'z birikmalari, gap paradigmalari, matn negizida tahlil qilish borasidagi nazariy masalalar bayon qilingan.

Annotation

This article describes the theoretical issues regarding the details, which are considered as the structural element of the text, the philological approach to it, the view of it as a small element of the text, recognition, word combinations, sentence paradigms, and analysis on the basis of the text.

Аннотация

В данной статье раскрыты теоретические вопросы относительно детали, которая рассматривается как структурный элемент текста, филологический подход к ней, взгляд на нее как на малый элемент текста, распознавание, словосочетания, парадигмы предложения, анализ на предмет. основу текста.

Kalit so'zlar: badiiy detal, konstant, represental, tasviriy detallar; aniqlashtiruvchi detal, xarakter, implitsit, badiiy matn, yashirin ma'no.

Keywords: artistic detail, constant, representational, descriptive detail; clarifying detail, character, implicit, artistic text, hidden meaning.

Ключевые слова: художественная деталь, постоянные, изобразительные, изобразительные детали; уточняющая деталь, характер, неявный, художественный текст, скрытый смысл.

Detal fransuz tilidan olingan bo'lib, "qism", "bo'lak" degan ma'nolarni ifodalaydi. Detal o'zining lug'aviy ma'nosidan tashqari qo'shimcha ma'no tashuvchi matnning kichik elementidir. Muallif yaratayotgan matniga xos va mos bo'lgan narsa-buyumlarni tanlab oladi va ularga mazmun yuklaydi. Badiiy detalga oid qarashlar va tushunchalar XIX asrning 70-80 yillarida rivojlana boshladi. Bu vaqtda badiiy detalga poetik jihatdan yondashilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot ishlari o'zining mazmuni, xilma-xilligi bilan, o'z davrining ijtimoiy-siyosiy

mafkurasiga xizmat qilishi bilan ajralib turgan. Adabiyotshunos olim D.Quronov detalni g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi vosita sifatida izohlaydi, badiiy voqealikni yaratish vositasi-ashyosi bo'lib, tasvirlanayotgan narsa-hodisani konkretlashtirishi, hissiy idrok qilishga ko'mak berishini, detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi ekanligini va eng, avvalo, asarni jonli tasvirlashga xizmat qilishini aytadi.

Yozuvchi qahramondagi yoki borliqdagi sukunatni tasvirlamoqchi bo'lsa, "ular jim qoldilar" yoki "borliq jim-jit" demaydi. Bu vaziyatni "soatning chiqillashi", "jo'mrakdan suvning chak-chak ovozi", "chigirtkalarning chirillashi", "itlarning vovullashi", "bo'rilarining uvillashi" orqali detallashtiradi. Qahramonning ruhiy holatini ifodalamoqchi bo'lsa, "qorong'u osmon", "izg'irin shamol", "huvilagan uy" kabi peyzaj tasviridan fon sifatida foydalanadi. Obrazning qo'rquvini ifodalamoqchi bo'lsa, "qo'llari qaltirashi", "ranglari oqarishi", "ovozning titrashi" bu holatni ifodalaydi. Detallar bevosita obrazga tegishli tegishli bo'lishi ham mumkin, masalan, uning libosining eski bo'lishi, sochlarining tartibsiz ekanligi qahramonning kambag'al ekanligi yoki e'tiborsizligidir. D.Quronov detalning birlamchi funksiyasini ko'rib chiqadi unga ko'ra: 1) harakat; 2) portret; 3) peyzaj; 4) maishiy turmush kabi turlarga bo'ladi. Bundan tashqari umumlashtirish; psixologik funksiya; restseptiv ustanovka berish funksiyasilarini ham bajarishini ta'kidlayd¹. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton o'z qarashlarida asarning poetik birliklari qatoriga kiruvchi detalning badiiy-estetik vazifalari yoki xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi: "Badiiy asardagi detal – oddiy hayotdagi detal emas, balki o'zida tipiklik va individuallik xususiyatlarini yiqqan vositadir. Biror kishi obrazini yaratish uchun yozuvchi o'ziga, shu bilan birga, shu kishi vakili bo'lgan muhitga xos detallarni tanlab va yig'ib olishi kerak. Shunday yo'l bilan tasvir etilgan kishining har bir ishi va so'zi o'quvchi uchun ishonarli bo'ladi"². Mahoratli hikoyanavis A.Qahhor ham o'rinli ishlatilgan detallar to'g'risida mulohazalari mavjud, unga ko'ra: "Qiziq detal, chiroyli parcha shu vaqtda asarning qimmatini oshiradiki, shu qiziqdigi, shu chiroyligi bilan ideyaning tashviq qilinishiga xizmat qilsa" deb yozadi. A.Qahhor asarlarini tahlil qilgan M.Sultonova ham detallarning muayyan sharoit va psixologik holat tasviri uchun o'rinli bo'lishini, qahramon dunyoqarashi, uning xarakteridagi ayrim tomonlarni ko'rsatishda katta ahamiyat kasb etishni aytib o'tadi. M. Sultonova qarashlarida, asosan, davr mafkurasiga yetakchilik qiladi. Buni biz badiiy tahlilari jarayonida ham ko'rishimiz mumkin. Lekin detallar davr xarakteri, kundalik mayda- chuyda

¹ Quronov D va bo'shqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent, 2013. – B. 98.

² Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, O'qituvchi, 1986. – B.192.



narsalar orqali ko'rsatish uchungina xizmat qilmay balki ayrim o'rinlarda obrazning bilim saviyasini, dunyoqarashini ham belgilab berishini tahlil qiladi. Badiiy matnda detal birdan ko'rinmasligi, sezilmasligi, o'quvchi unga e'tibor bermasligi ham mumkin. Lekin detalsiz asarni va detal bilan bog'liq voqeani, obrazni tasavvur qilish qiyin ekanligini yozadi. Sultonova detallar nihoyatda xilma-xil ekanligini u "avtorniki" ham "qahramoniki" ham bo'lishi mumkin deb yozadi. Detal nutqda, peyzaj, portret va boshqa tasviriy vositalarda bo'lishi ham mumkinligi haqida mulohazalarida bildiradi. Lekin detallarni alohida turlarga ajratib tadqiq etmaydi. Lekin tahlillarda ko'zga tashlanadi. Detallarning ahamiyati asar g'oyasi bilan obraz va personajlarni xarakterlashdagi xizmati bilan belgilanishini ta'kidlaydi va bunga misollar keltiradi. Detalning xarakteri unga yuklatilgan vazifa bilan belgilanadi. Bu yerda asarning janr xususiyatini ham hisobga olmaslik mumkin emas, deb yozadi. Yozuvchi tutgan pozitsiyasi uning muayyan obrazga voqea va hodisaga bo'lgan munosabati detal xarakterini belgilaydi. Yozuvchi bir erda qahramonga achinib, uning soddaligidan kuladi-buning uchun birgina xarakterli detalning o'zi yetarli ekanligini yozadi, bu fikrlari Quronov D. ning qarashlarida o'z tasdig'ini topadi. Yozuvchi voqelikni obrazli tasvirlashi uchun quruq so'zning o'zi kifoya qilmaydi, garchi tanlangan so'zlar badiiy bo'yoqqa, poetik libosga ega bo'lmasin, asarda voqelikka hamohang bo'lgan badiiylikni, badiiy fonni ifodalaydigan vositalar tasviri berilmas ekan, xarakterlar ochilmaydi, nazarda tutilgan g'oya ifodalanmaydi, syujet shakllanmaydi. Shuning uchun badiiy detal yozuvchining g'oyaviy-estetik maqsadini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ba'zan yozuvchi asar kompozitsiyasiga o'rinli kiritgan birgina detal vositasida ko'pgina teran ma'nolarni ifoda eta oladi. Muallif atrof-muhit va voqealarni tasvirlashni personajga ishonib, aytmaydi, balki ko'rsatadi. Xarakterni idrok etish orqali muhit tasvirlanadi, taassurotlar va kayfiyatlar muallif aralashuvisiz badiiy shaklda qayd etiladi. Qahramon muallifdan mustaqil deb tan olinadi va uning ruhiy holati va xarakteri atrof-dagi detallar orqali namoyon bo'ladi. Detal badiiy matnning tashqi strukturasida ifodlangandek ko'rinsa ham o'zining ikkinchi rejasida obrazning bir qismiga aylanadi. Shunday qilib, detal o'quvchiga matn mazmunini mustaqil tushunishda, xarakterni baholashda va matn bilan hissiy aloqa o'rnatishda qo'llanma bo'ladi. Har bir badiiy matnda mavjud bo'lgan pragmatik munosabat o'quvchini dasturlashtirilgan yo'l bo'ylab g'oyaga yetaklaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Қуронов Д ва бошқалар. Адабиётшнослик луғати. – Тошкент, 2013. – Б.88.
- 2.Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1986. – Б.192





- 3.Березняк.М. А. Типы и функции художественной детали в англоязычной прозе: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук / М.А. Березняк - Одесса, 1986. -21 с.
- 4.ГузарЗ.П. Художественная деталь в произведениях Ивана Франко бориславского цикла: Автореф. дис.... канд. филол. наук / З.П. Гузар. - Львов, 1970.

